



## TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATNING XALQARO SAVDODAGI O'RNI VA AHAMIYATI

*Rustamova Gulmira Aliqulovna*

*Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda transchegaraviy elektron tijoratning xalqaro savdodagi o'rni va ahamiyati keng tahlil qilingan bo'lib, uning global iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritib berilgan. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi va internet xizmatlari qulayligi tufayli transchegaraviy elektron tijorat tovarlar va xizmatlarning mamlakatlar o'rtasida tezkor almashinuvini ta'minlab, logistika xarajatlarini kamaytirish, savdo jarayonlarini soddalashtirish va iste'molchilar uchun keng tanlov imkoniyatini yaratmoqda. Shu bilan birga, elektron to'lov tizimlari va yetkazib berish tizimlarining raqamli integratsiyasi tufayli transchegaraviy savdo operatsiyalarining samaradorligi oshmoqda va bu jarayon kichik va o'rta biznes sub'yektlariga ham xalqaro bozorga chiqish imkonini bermoqda. Tadqiqot natijalari transchegaraviy elektron tijoratning xalqaro savdoda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirish hamda raqamli iqtisodiyot asosida yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini berishini ko'rsatadi. Tezis natijalari amaliyotda elektron savdo strategiyasini shakllantirish, transchegaraviy logistika jarayonlarini optimallashtirish va xalqaro elektron savdo infratuzilmasini rivojlantirishda qo'llanishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Transchegaraviy elektron tijorat, elektron tijorat, xalqaro savdo, raqamli iqtisodiyot, eksport, import, elektron savdo platformalari, kichik biznes, o'rta biznes, global bozor, onlayn to'lovlar, raqamli integratsiya, logistika tizimi.

Bugungi kunda elektron savdo shakllari oddiy do'kon yoki an'anaviy eksport-import mexanizmlaridan ko'ra tezroq, qulayroq va arzonroq bo'lib



bormoqda. Tadbirkorlar uchun yangi bozorlarga chiqish, marketing xarajatlarini kamaytirish, mahsulotni global iste'molchiga qisqa vaqt ichida yetkazish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun transchegaraviy elektron tijorat xalqaro miqyosda faoliyat yuritish uchun qulay maydon yaratmoqda. Endilikda jismoniy yoki geografik cheklovlar, sarmoya yetishmovchiligi kabi muammolar sezilarli darajada kamaymoqda. Internetga ulangan har qanday korxona o'z mahsulotlarini boshqa davlatlarga eksport qilishi mumkin. Bu holat xalqaro savdoni yangi bosqichga olib chiqmoqda.


Shu bilan birga, global elektron tijorat bozorining hajmi yil sayin ortib bormoqda. Jahon banki va BMT savdo tashkilotlari tomonidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlarga ko'ra, 2024-yilga kelib transchegaraviy elektron tijoratning umumiy hajmi 5 trillion AQSh dollaridan oshgan. Bu ko'rsatkichning yildan-yilga barqaror sur'atda o'sayotgani elektron savdoning xalqaro savdodagi ahamiyatini ochib beradi. Ayniqsa, pandemiya davrida ko'plab davlatlarda an'anaviy savdo cheklovlari joriy etilgan bir paytda, elektron savdo orqali tovar va xizmatlarni yetkazib berish imkoniyatlari asosiy vositaga aylandi. Shuningdek, yirik korxonalar bilan bir qatorda oddiy foydalanuvchilar ham bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishdi.

Transchegaraviy elektron tijorat xalqaro savdoning demokratlashuviga xizmat qilmoqda. Ya'ni avvallari faqat yirik eksportyorlar yoki tashqi savdo bo'yicha tajribaga ega bo'lgan subyektlargina xalqaro bozorga chiqish imkoniga ega bo'lgan bo'lsa, hozirda kichik firmalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar ham bu jarayonga qo'shilmoqda. Internet orqali mahsulotni sotish va yetkazib berishning ancha sodda bo'lishi xalqaro savdo bozorida raqobat muhitini kuchaytirmoqda. Natijada iste'molchilar uchun sifatli va nisbatan arzon mahsulotlar tanlovi kengaymoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchilar va eksportyorlar o'z mahsulotlarini o'zgacha uslubda targ'ib qilish, mijozlar ehtiyojlarini tahlil qilish, logistikani optimallashtirish kabi imkoniyatlarga ega bo'layapti.



Transchegaraviy elektron tijorat faqat tovar almashinuvi emas, balki xizmatlar eksporti, masofaviy xizmat ko'rsatish, axborot texnologiyalari, konsalting, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, raqamli xizmatlar eksporti rivojlanayotgan mamlakatlar uchun valuta tushumlarini oshirish va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashning samarali yo'liga aylanyapti. Bu esa ayniqsa O'zbekiston kabi yangi raqamli iqtisodiyot sari intilayotgan mamlakatlar uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda elektron tijorat jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Bunda internet infratuzilmasining kengayishi, onlayn to'lov tizimlarining takomillashuvi hamda pandemiya kabi omillar muhim rol o'ynadi. Quyidagi rasmda 2020–2025 yillar oralig'ida global elektron savdo hajmi va foydalanuvchilar sonining o'sishi ko'rsatilgan (1-rasm):



**1-rasm. Global elektron tijorat hajmi va foydalanuvchilar soni, 2020–2025-yildagi istiqbollar<sup>1</sup>**


Bu rasmdan ko'rinib turibdiki, global elektron tijorat 2020-2025 yillarda barqaror o'sish sur'atini saqlab kelmoqda. Savdo hajmi 4.2 trillion dollardan 8 trillion dollargacha oshmoqda, foydalanuvchilar soni esa 2 milliarddan 3.9

<sup>1</sup> <https://growthdevil.com> – GrowthDevil Media kompaniyasiga tegishli dropshipping va elektron tijorat bo'yicha maslahat va sharhlar saytidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



milliardgacha yetmoqda. Bu ko'rsatkichlar elektron tijoratga bo'lgan talab ortayotganini bildiradi.

Bugungi kunda elektron tijorat sohasida dunyoda bir nechta davlatlar yetakchi o'rinni egallagan. Ularning tajribasi boshqa mamlakatlar uchun o'rnak bo'lishi mumkin. Masalan, Xitoy bu borada juda katta yutuqlarga erishgan. Alibaba va JD.com kabi platformalar orqali nafaqat ichki, balki xalqaro bozorlarni ham egallagan. Xitoylik kichik tadbirkorlar hatto qishloq joylarda ham onlayn savdoni yo'lga qo'yib, daromad topmoqda. AQShda esa Amazon elektron tijoratning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib qolmoqda. U orqali minglab kichik biznes egalari o'z mahsulotlarini millionlab mijozlarga taklif qilmoqda. Yevropada Germaniya, Buyuk Britaniya kabi davlatlar elektron tijoratni qonuniy va texnologik jihatdan rivojlantirgan. Bu mamlakatlarda logistika, onlayn to'lovlar va mijoz huquqlari kuchli himoyalangan. Bu esa xaridorlar ishonchini oshirib, tizimga barqarorlik olib kelgan. Elektron tijoratda yetakchi davlatlarning holatini quyigicha ko'rishimiz mumkin (2-rasm):



2-rasm. Elektron tijoratda yetakchi davlatlar<sup>2</sup>

<sup>2</sup> <https://www.euromonitor.com> – Euromonitor International Ltd. kompaniyasiga tegishli global bozor tadqiqotlari va tahlil platformasidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki, global elektron tijoratda Xitoy mutlaq yetakchilik qilmoqda – 52% ulush bilan. Bu mamlakatda ichki bozordagi raqamli xizmatlar, to'lov tizimlari (Alipay, WeChat Pay) va e-tijorat gigantlari (Alibaba, JD.com) asosiy rol o'ynaydi. AQSh 19% bilan ikkinchi o'rinda turadi va Amazon, eBay kabi kompaniyalar asosiy yetakchilardir. Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya va Janubiy Koreya esa nisbatan kichik ulushga ega bo'lsa-da, texnologik infratuzilma va yuqori internet qamrovi tufayli kuchli pozitsiyada qolmoqda. Elektron tijoratda raqobat kuchaymoqda.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida transchegaraviy elektron tijorat xalqaro savdoning ajralmas qismiga aylanmoqda. Internet texnologiyalarining keng rivojlanishi, to'lov tizimlarining takomillashuvi va logistika xizmatlarining optimallashtirish natijasida jahon bozorida transchegaraviy elektron tijorat imkoniyatlari kengayib bormoqda. Transchegaraviy elektron tijorat orqali tadbirkorlar va iste'molchilar geografik cheklovlarsiz savdo qilish imkoniyatiga ega bo'lib, mahsulot va xizmatlarni tezkor yetkazib berish va to'lovlarni soddalashtirishga erishmoqdalar.

So'nggi yillarda elektron tijoratning xalqaro miqyosda ommalashishi korxonalar uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratmoqda. Masalan, Amazon, Alibaba, eBay kabi global elektron tijorat platformalari millionlab foydalanuvchilarni birlashtirib, kichik va o'rta biznes subyektlariga ham xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatini bermoqda. Shu bilan birga, FinTech texnologiyalarining rivojlanishi natijasida xalqaro to'lov operatsiyalarining soddalashtirilishi ham transchegaraviy savdoni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Elektron tijoratning xalqaro savdoga ta'siri bir nechta yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, u eksport va import operatsiyalarini soddalashtirib, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi. Ikkinchidan, mahsulot va xizmatlarning global ko'lamda erkin aylanishiga yordam beradi. Uchinchidan, raqamli platformalar orqali ishlab chiqaruvchilar bilan mijozlar orasida bevosita aloqalar vujudga keladi. Bu esa narxni pasaytiradi va raqobatni kuchaytiradi. To'rtinchidan, transchegaraviy elektron tijorat global ishlab chiqarish



zanjirlarining muvofiqligini ta'minlab, logistika va ta'minot tizimlarini yanada integratsiyalashtiradi.

Xususan, COVID-19 pandemiyasi davrida bu model xalqaro savdoning barqarorligini saqlab qolishning asosiy omillaridan biri bo'ldi. Yirik kompaniyalardan tortib to kichik tadbirkorlarga ham – hamma uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. Ushbu jarayon hozirda ham jadal rivojlanib, xalqaro iqtisodiy siyosat va tartibga solish mexanizmlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda (1-jadval):

**1-jadval**

**Transchegaraviy elektron tijoratning xalqaro savdodagi roli<sup>3</sup>**

| <b>№</b> | <b>Asosiy<br/>yo'nalishlar</b>             | <b>Izohlar</b>                                                            | <b>Namuna yoki misol</b>                                                   |
|----------|--------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|
| 1        | Eksport<br>imkoniyatlarini<br>kengaytirish | Kichik va o'rta biznes<br>subyektlari ham xalqaro<br>bozorlarga chiqmoqda | Etsy, Amazon orqali<br>eksport qilayotgan<br>kichik korxonalar             |
| 2        | Xarajatlarni<br>kamaytirish                | Transport, vositachi,<br>reklama va logistika<br>xarajatlari kamayadi     | Alibaba'da to'g'ridan-<br>to'g'ri ishlab<br>chiqaruvchidan xarid<br>qilish |
| 3        | Raqobatni<br>kuchaytirish                  | Global bozorda mahsulot<br>tanlovi ortadi, narxlar<br>pasayadi            | Bir mahsulotni 10 ta<br>xorijiy ishlab<br>chiqaruvchi taklif qiladi        |
| 4        | Tovar aylanish<br>tezligini oshirish       | Real vaqt rejimidagi<br>buyurtma va yetkazib<br>berish tizimi mavjud      | Amazon Prime yoki<br>DHL Express xizmatlari                                |
| 5        | Xizmatlar<br>eksportini<br>rivojlantirish  | Masofaviy xizmatlar,<br>konsalting, dasturlash                            | Fiverr, Upwork kabi<br>platformalar orqali<br>xizmat ko'rsatish            |

<sup>3</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi





|    |                                                 |                                                                          |                                                                             |
|----|-------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|
|    |                                                 | kabilar oson eksport<br>qilinadi                                         |                                                                             |
| 6  | Yangi ish<br>o'rinlarini yaratish               | Elektron tijorat ekotizimi<br>yangi sohalarda ish<br>o'rinlari yaratadi  | IT, logistika, marketing,<br>mijozlarga xizmat<br>ko'rsatish                |
| 7  | Iqtisodiy<br>inklyuziyani<br>oshirish           | Chekka hududdagilar<br>ham savdoga jalb qilinadi                         | O'zbekistondagi qishloq<br>tadbirkorlari eBay'da<br>mahsulot sotmoqda       |
| 8  | Raqamli to'lov<br>tizimlarini<br>rivojlantirish | Onlayn to'lovlar<br>savdoning ishonchliligini<br>oshiradi                | PayPal, Stripe, Uzum<br>Bank kabi raqamli to'lov<br>xizmatlari              |
| 9  | Global<br>integratsiyani<br>kuchaytirish        | Mamlakatlar o'rtasidagi<br>iqtisodiy aloqalar<br>mustahkamlanadi         | Transchegaraviy e-<br>tijoratga oid xalqaro<br>bitimlar                     |
| 10 | Ma'lumot asosida<br>boshqaruv                   | Raqamli savdo orqali<br>mijoz talablari va bozor<br>ehtiyoji o'rganiladi | Google Analytics, Meta<br>Ads orqali ma'lumotga<br>asoslangan strategiyalar |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, transchegaraviy elektron tijorat xalqaro savdoda ko'p qirrali rol o'ynaydi. Eng avvalo, bu tizim kichik va o'rta biznes subyektlari uchun global bozorga kirish eshigini ochadi. Ular an'anaviy eksport mexanizmlaridan farqli ravishda, kam xarajat bilan o'z mahsulotlarini xorijiy xaridorlarga yetkazib bera oladi. Bu esa eksport salohiyatining oshishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, elektron savdo tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, ya'ni vositachilar, distributorlarsiz to'g'ridan-to'g'ri savdo qilish imkonini beradi. Bu orqali narxlar pasayadi, raqobat esa kuchayadi.

Boshqa tomondan, tovar aylanishi ham ancha tezlashadi. Real vaqt rejimida buyurtmalarni rasmiylashtirish, elektron to'lovlar va tezkor yetkazib berish xizmatlari (masalan, DHL, FedEx) xalqaro savdoni yanada qulaylashtirmoqda. Bundan tashqari, xizmatlar eksporti, ayniqsa intellektual mehnat asosidagi xizmatlar, ya'ni dasturlash, dizayn, tarjima va konsalting osonlik bilan amalga





oshirilmoqda. Bu xizmatlar milliy iqtisodiyot uchun yangi daromad manbai bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli savdoning yana bir muhim jihati – iqtisodiy inklyuziya va yangi ish o'rinlari yaratishidir. Chekka hududlarda yashovchi tadbirkorlar ham global savdo zanjiriga qo'shilmoqda. Shu orqali infratuzilmasi yaxshi bo'lmagan hududlarda ham iqtisodiy faollik yuzaga kelmoqda. Umuman olganda, transchegaraviy elektron tijorat orqali xalqaro savdo nafaqat rivojlanmoqda, balki yanada adolatli va ochiq tizimga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, transchegaraviy elektron tijorat zamonaviy xalqaro savdoning ajralmas qismiga aylanib, tovar va xizmatlar eksport-import jarayonlarini soddalashtirish, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston uchun ham transchegaraviy elektron tijoratning rivojlanishi xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, eksport hajmini oshirish, aholiga yangi ish o'rinlarini yaratish va biznes yuritishda qulay shart-sharoitlar yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, transchegaraviy elektron tijoratning samarali rivojlanishi uchun bojxona jarayonlarini raqamlashtirish, tezkor logistika xizmatlarini yo'lga qo'yish, elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish va xalqaro elektron savdo platformalarida mahalliy tadbirkorlarning ishtirokini kengaytirish zarurdir.

Yuqoridagi ma'lumotlar va tahlillardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surdik:

- transchegaraviy elektron tijoratni qo'llab-quvvatlash uchun qulay soliq va bojxona imtiyozlari joriy etish;
- elektron to'lov tizimlarini xalqaro tizimlar bilan integratsiya qilish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun elektron savdo bo'yicha o'quv dasturlarini tashkil etish;
- logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yetkazib berish jarayonlarini tezlashtirish.



Ushbu chora-tadbirlar transchegaraviy elektron tijoratning xalqaro savdodagi rolini yanada kuchaytirishga va mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-sonli Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-noyabrdagi "Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PQ-14-sonli Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-sonli Qarori
4. Захаров А.Н., Чехранова Т.А. Тенденции развития электронной торговли в международной практике // Российский внешнеэкономический вестник. 2019. № 6. С. 102-106.
5. Чжон Б. Электронная торговля в республике Корея: современное состояние и особенности // Вестник Института экономики Российской академии наук. 2019. № 5. С. 178-190.
6. Abdurahmonov X.T. Elektron tijoratning rivojlanish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2022. №3. – B. 114-119.
7. Rahimova M.A. Elektron tijoratda raqamli tafovut muammosi // Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. Toshkent: IQTISODIYOT, 2023. – B. 67-73.
8. <https://growthdevil.com> – GrowthDevil Media kompaniyasiga tegishli dropshipping va elektron tijorat bo'yicha maslahat va sharhlar sayti
9. <https://www.euromonitor.com> – Euromonitor International Ltd. kompaniyasiga tegishli global bozor tadqiqotlari va tahlil platformasi